2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-ruskiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O'qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O'qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

O'n to'rtinchi modul.

"Bo'sh". shamsiy va qamariy harflar. Anqlik artikli. Tanvin.

Reja:

1. Anqlik artikli.
2. Shamsiy va qamariy harflar.
3. Tanvinlar va ularning turlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Shamsiy va qamariy harflar bilan tanishtirish va ularni anqlik artikli bilan to'g'ri talaffuz qilishni o'rganish, tanvinlar va ularning turlari bilan tanishish.

Tayanich so'z va iboralar: anqlik artikli, shamsiy va qamariy harflar, so'zning aniq va noqniq holati, tanvin damma, tanvin fatha, tanvin kasra.

So'zning boshida ل ا ning ل harfi o'qilishi yoki o'qilmasligiga qarab arab alifbosi ikki teng qismga bo'linadi. Ularning 14 tasi "qamariya" ("oy") harflari va qolgan 14 tasi "shamsiya" ("quyosh") harflaridir.

O'n to'rtta qamariya harflar quyidagilar va ularni yoddan bilish zarur:

ا ب ج ح خ ع غ ف ق ك م ه و ي

O'n to'rtta shamsiya harflar quyidagilar va ularni ham yoddan bilish zarur:

ت ث د ذ ر ز س ش ص ض ط ظ ل ن

Gapning borishiga qarab jumladagi so'z aniq yoki noaniq holatda bo'ladi. Noaniq holatdagi so'z odatda tanvinga tugagan bo'ladi.

So'zning aniq holatda ekanligini ko'rsatib turadigan belgi esa ل anqlik artiklidir. ل anqlik artikli oldiga ham o'qishni yengillatish uchun vaslali, ya'ni biriktiruvchi hamza qo'yilgan. U faqat gapning boshida kelganida «'al » deb o'qiladi. Shuning uchun bizda uni ال «'al» anqlik artikli deb atashadi:

الكتاب ('al-ki-ta:-bu) kitob - المكتوب ('al-mak-tu:-bu) xat

Ushbu so'zlarning boshidagi م va ك harflari qamariya harflari edi. Shuning uchun bu so'zlardagi ال artiklining ل harfi to'liq o'qilayapti. (32-betga qarang).

Agar so'z shamsiya harf bilan boshlangan bo'lsa, anqlik artiklining ل harfi shamsiya harf ta'sirida assimilyatsiyaga uchraydi, ya'ni xuddi o'sha shamsiya harf kabi talaffuz qilinadi va yozuvda shamsiya harf ustiga «shadda» belgisi qo'yiladi. Masalan, الشَّمْسُ so'zi 'al-sham-su emas, balki 'ash - sham-su deb o'qiladi:

التَّرسُ ('ad-dar-su) dars السلام ('as-sa-la:-mu) tinchlik

Ikkita so'zning o'rtasida kelgan vaslali hamza ل harfi bilan oldindagi so'zning oxirgi undoshining unlisini vasl qiladi:

كَتَبَ الْمَكْتُوبَ (kataba-l-maktu:ba) U xat yozdi.

أَخَذَ الْكِتَابَ ("axaza-l-kita:ba) U kitob oldi.

Agar vaslali hamzali yoki ال artiklini olgan so'zdan oldingi so'zning oxiri sukun bilan tugagan bo'lsa, undan oldingi undosh harfning harakatiga qaraladi. Agar u «a» bo'lsa, vaslali hamza «i», agar «i», bo'lsa va u so'z fe'l bo'lmasa vaslali hamza «a», «u» bo'lsa vaslali hamza ham «u» deb o'qiladi.

Masalan: maktabdan (mina-l-madrasati)

مِنَ الْمَدْرَسَةِ

Direktor kim ? (mani-l-mudi:ru) مَنْ الْمُدِيرُ ؟
Ular , musulmonlar. . . (humu-l-muslimu:na) هُمْ الْمُسْلِمُونَ

Agar bu soʻz feʼl boʻlsa ال ning vaslali hamzasi «i» deb oʻqiladi:

darsni yoz! ('uk-tu-bi-d-darsa) - : أَكْتُبِ الدَّرْسَ

Aniq holatdagi soʻz oldida ل old koʻmakchisi qoʻshilib yozilganida (l) alif yozuvda tushib qoladi - yozilmaydi. Masalan:

لqالْتَيْتُ ← لِالْتَيْتِ (emas لِالْتَيْتِ)

لqالمُعَلِّمُ ← لِالمُعَلِّمِ (emas لِالمُعَلِّمِ)

Agar ل harfi bilan boshlangan aniq holatdagi soʻz oldiga ل koʻmakchisi birikib kelsa, yozuvda aniqlik artikli tushib qoladi - yozilmaydi. Aslida alif tushib qoladi , ل harfi esa saqlanib qoladi, chunki soʻzning ل harfi ikkilanib kelayapti. Masalan:

لqاللسان ← لِاللسان (emas لِاللسان)

Tanvinga tugagan soʻzni vasl qilishda vaslali hamza kasra bilan harakatlanadi.

ال **aniqlik artikli*siz kelgan ushbu soʻzlar ham aniq holatda deb hisoblanadi:**

a) atoqli otlar: مِصْرُ، مَكَّةُ، طَشَقَنْدُ، أَحْمَدُ، فَاطِمَةُ kabi;

b) koʻrsatish olmoshlari: هَذَا، هَذِهِ، ذَلِكَ، تِلْكَ kabi;

v) kishilik olmoshlari: أَنَا، أَنْتَ، أَنْتِ، هُوَ، هِيَ، أَنْتُمْ kabi;

g) qaratqich-qaralmish(izofa) shaklidagi birikmaning 1-chi boʻlagi: كِتَابُ الطَّالِبِ، طَالِبُ الْجَامِعَةِ kabi;

d) undalmasi bilan kelgan soʻzlar: يَا غُلَامُ، يَا أَسْتَاذَ kabi.

Tanvinga tugagan soʻzlar noaniq holatda boʻladi:

(bir) maktab-، مَدْرَسَةٌ-(bir) qiz-، بِنْتُ-(bir) kitob-، كِتَابُ

Tanvin kasra

Tanvin kasra- ِ «in» deb oʻqiladigan qoʻshaloq kasra harakatidir. U soʻzning qaratqich kelishikda ekanligidan dalolat beradi:

otaning- (‘abin) بِنْتِ، qizning-(bintin) بِنْتِ، uyning-(baytin) بَيْتِ

Tanvin fatxa

Tanvin fatha_ - َ «an» deb oʻqiladigan qoʻshaloq fatha harakatidir- َ. Bu yerdagi ikkinchi fatha sukunli nunni ifodalab kelayapti. U soʻzni tushum kelishigida ekanligidan dalolat beradi:

otani- (‘aban) بِنْتَا، qizni-(bintan) تَوْبَةَ، tavbani-(tawbatan) تَوْبَاتَا

Tanvin damma

Tanvin ismning oxiriga qoʻshiladigan, aytiladigan- u, ammo yozuvda aks etmaydigan ortiqcha sukunli nun- ْ dir. Yozuvda qoʻshaloq tarzda yozilgan qisqa unli harakatining ikkinchi-«ortiqcha»si tanvindir. Masalan, tanvin damma qoʻshaloq damma harakati- ُ bilan yoziladi va «un» deb oʻqiladi. Bu yerdagi ikkinchi harakat ushbu sukunli nunni ifodalab kelayapti. **Tanvin damma ismning bosh kelishikda ekanligini bildiradi.**

Nazorat savollari:

* aslida ل aniqlik artikli. Uning oldidagi vaslali xamzani ifoda-laydigan ا (alif) oʻqishni osonlashtirish uchun xizmat qiladi.

1. ال - aniqlik artikli haqida gapirib bering.
2. Shamsiy va qamariy harflarning farqi nimada?
3. Shamsiy harflarni aytib bering.
4. Qamariy harflarni aytib bering.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-ruskiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O'qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O'qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

O'n beshinchi modul. Amaliy mashqlar bajarish.

Reja:

1. Al-aniqlik artikliga oid so'zlar topish
2. Shamsiy harflarni o'rganish
3. Qamariy harflarni alohida yozish

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Shamsiy va qamariy harflar bilan tanishtirish va ularni aniqlik artikli bilan to'g'ri talaffuz qilishni o'rganish, tanvinlar va ularning turlari bilan tanishish.

Arab so'zlarining (fe'l va harf so'z turkumiga kiruvchi so'zlardan tashqari) oxirgi harfi usti yoki ostiga qo'yiladigan harakat belgisi tanvin, ya'ni ikkilangan fatha, kasa va damma harakatlari hisoblanadi. Tanvinlar ma'lum ma'noda kelishik qo'shimchalarini ham bildiradi. Ular:

1) tanvin damma – ة “un” deb talaffuz qilinadi va so'zning Bosh kelishikda turganligini anglatadi: دَفْتَرٌ – daftar^{un};

2) tanvin kasa – ا “in” deb talaffuz qilinadi va so'zning Qaratqich kelishikda turganligini anglatadi: دَفْتَرٍ – daftarⁱⁿ;

tanvin fatha – ا “an” deb talaffuz qilinadi va so'zning Tushum kelishikda turganligini anglatadi. Tanvin fathaning boshqa tanvinlardan farqli jihati u bevosita harf ustiga emas, balki ا harfini taglik sifatida oladi va uning ustiga qo'yiladi – ا. Agar so'z ة “ta marbuta” bilan tugagan bo'lsa, u holda tanvin fatha hech qanday tagliksiz bevosita ة ning ustiga qo'yiladi – دَفْتَرًا... ة... – daftar^{an}; لُغَةٌ – lug'at^{an}.

1. Qamariya va shamsiya harflarni yod oling.
2. Quyidagi so'zlarni shamsiy va qamariy harflarga ajrating.

شَمْسٌ - الشَّمْسُ - 'ashshamsu – quyosh,

طَرِيقٌ - الطَّرِيقُ - 'at.t.arūqu-yo'l

قَمَرٌ - القَمَرُ - 'alqamaru – oy

كِتَابٌ - الكِتَابُ - 'alkitābu

لَوْحٌ - اللَوْحُ - 'allao 'x.u – doska,

لَبَنٌ - اللَّبَنُ - 'allabanu – sut.

3. Quyidagi so'zlarni yozing, transkripsiyalang, so'ngra “al-“ aniqlik artikli bilan birga yozing, transkripsiyalang va ovoz chiqarib o'qing:
درس، جدول، مكتبة، طالب، سطر، صير، هزل، فائدة، ضرر، شرق، غرب، أنب، كلام، ثبات، عالم، نور، ذات، زاد، وطن، حزب، خبر، تشبيه، ظن، يوم، لؤلؤ، قميص، رفیق، إنسان.

4. Quyidagi juft so'zlardan namunadagidek so'z birikmasi hosil qiling. كِتَابٌ
المطعم kitābu l-mu'allimi (o'qituvchining kitobi), ularni harakatlantir va transkripsiyalang.
طالب، دفتر، معلمة، محفظة، رفیق، قميص، باب، غرفة؛ حائط، بيت.

“Harflar olami” o‘yini

O‘yinni o‘tkazish tartibi quyidagicha: stol ustiga qo‘yilgan 3ta qutining birinchisida cho‘ziq unliar, ikkinchisida qamariy harflar va uchinchisida shamsiy harflar joylashgan bo‘ladi. Talabalar navbat bilan chiqib tartib bilan xohlagan qutilardan harflarni olib ulardan so‘z tuzadilar. Bunda talabaga ana o‘sha 3 ta harflarning o‘rinlarini almashtirib turli so‘zar tuzishlariga ijozat beriladi. Qolgan talabalar ham shunday yo‘l bilan so‘zlar tuzib daftarlariga yozadilar.

Agar chiqqan harflardan so‘z yasash iloji bo‘lmasa, o‘qituvchi yordam berishi kerak.

Bu o‘yin talaba va o‘quvchiarning harflarni tezda tanib olishlariga, harfardan tez so‘z tuzishlariga va shu asosda ularning so‘z boyliklari boyib borishiga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. ال - aniqlik artikli nima?
2. Shamsiy harflar bilan boshlanuvchi 5 ta so‘z ayting
3. Qamariy harflar bilan boshlanuvchi 5 ta so‘z ayting.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo‘shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-russkiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O‘qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O‘qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

O'n oltinchi modul.

Arab so'zlarining tuzilishi. O'zak. Arab lug'atidan foydalanish qoidalari.

Reja:

1. Arab tilida o'zak va uning turlari.
2. O'zak va noo'zak undoshlar.
3. So'z qoliplari. Vazn.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Arab tilida so'zlarning tuzilishini o'rganish, shakl yasovchi undoshlarni ajratish, lug'atdan to'g'ri foydalanishni o'rganish, so'zlar tuzilgan qoliplarni yodda saqlash va ularni qo'llashga oid ko'nikma hosil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: o'zak, unli va undosh harflar, shakl yasovchi undoshlar, so'z qoliplari, vazn.

Arabcha so'zning o'zagi faqat undosh harflardan iborat bo'ladi. Arab alifbosidagi barcha harflar o'zak (tashkil qiluvchi) undoshlar hisoblanadi. O'zakdagi asosiy undoshlarning ketma-ketligini buzmay ularning oldiga, ortiga, orasiga unli va undoshlarni qo'shib yangi so'zlar hosil qilinadi.

biluvchi; olim	عَالِمٌ	bildi	عَلِمَ
so'rab bildi	اسْتَعْلَمَ	bilim, bilish	عِلْمٌ
ta'lim	مُعَلِّمٌ	ma'lum; bilingan	مَعْلُومٌ
beruvchi	تَعَلَّمَ	o'rgandi	تَعَلَّمَ

O'zakning asosiy ma'nosi علم «bilim» hamma so'zda saqlangan. Bu yerdagi qo'shimcha undoshlar shakl yasovchi undoshlardir.

Shakl yasovchi undoshlar 10 ta bo'lib ن س ا ه undoshlaridir. Ularni yodda saqlash oson bo'lishi uchun, «اليوم نساء» «Bugun sen uni unutasan». degan gap shakliga solingan. Bu yerdagi ت harfi ن ni ham bildiradi ا و ي undoshlari esa shakl yasovchi cho'ziq unlihar sifatida ham nazarda tutilgan.

So'z qoliplari

Arab tilidagi so'zlarning xilma-xil shakllarini bir tartibga solish maqsadida ularni qolip (vazn)lar bilan ifodalanadi. Masalan, uch harfli I bob fe'lining umumiy qolipi sifatida «فعل» *qildi* o'zagi ishlatiladi Bunda «ف» harfi fe'lining birinchi o'zak undoshini, «ع» harfi ikkinchi o'zak undoshni, «ل» harfi esa uchinchi o'zak undoshni ifodalaydi. Har qanday so'zning qolipi shu harflar asosida yasaladi. Harakatlari va shakl yasovchi undoshlari esa shundoq ko'chirib qo'yiladi. Bizga tanish quyidagi so'zlar ushbu qoliplar bo'yicha yasalgan ekan:

مَدْرَسَةٌ ← عَالِمٌ؛ مَفْعَلَةٌ ← عِلْمٌ؛ فَاعِلٌ ← عِلْمٌ؛ فِعْلٌ ← دَرَسَ؛ فِعْلٌ ← فَعَلَ

To'rt yoki besh harfli fe'lni yoki undan yasalgan ismni qolipga solinganda to'rtinchi undosh ham, beshinchi undosh ham ل harfi bilan belgilanadi:

فَعَّلٌ ← مَفْعَلٌ؛ سَفَرَجَلٌ ← فَعَّلَ؛ مُتَرْجِمٌ ← تَرَجَّمَ

Lugʻat bilan ishlash

Lugʻatlar asosan oʻzak asosida tuzilgan boʻladi. Ularda bir oʻzakka oid boʻlgan soʻzlar bir joyda beriladi. Bunday lugʻat bilan ishlashda soʻzning tarjimasini bilish uchun avval uning oʻzagini aniqlash kerak. Ammo bu narsaga koʻp oʻqib, oʻrganib erishiladi. Agar oʻquvchiga bir oʻzakka oid bir necha soʻzlar maʼlum boʻlsa, ularning oʻzagini topish osonroq boʻladi.

Masalan, مُدْرَسٌ، تَدْرِيسٌ، مَدْرَسَةٌ، تَدْرِيسٌ soʻzlari «درس» oʻzagi asosida va كَلِمَةٌ، مُتَكَلِّمٌ، تَكَلَّمَ soʻzlarining oʻzagi esa «كلم» oʻzagi asosida hosil qilingan ekan.

Ushbu soʻzlarning maʼnosini topishda ularni lugʻatdan shu oʻzaklar boʻyicha qidirish lozim. Yaʼni مُحَمَّدٌ، أَحْمَدٌ، حَمِيدٌ، حَمِيدٌ soʻzlarining maʼnolarini lugʻatlarda alifbo tartibida emas, balki uni «ح» harfidan boshlab «حمد» oʻzagidan qidirish kerak boʻladi.

Nazorat savollari:

1. Arab tilidagi oʻzak haqida maʼlumot bering.
2. Oʻzak va nooʻzak harflar qanday harflar?
3. Arab tilidagi lugʻatlar qanday tuzilgan?
4. Oʻzak undoshlari nima?

Foydalaniladigan adabiyotlar roʻyxati

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qoʻshimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-ruskiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: Oʻqituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: Oʻqituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

O'n vettinchi modul. Amaliy mashalar bajarish.

Reja:

1. So'zlarning o'zaklarini topish
2. Uch va to'rt undoshli so'zlarning o'zaklarini aniqlash

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Arab tilida so'zlarning tuzilishini o'rganish, shakl yasovchi undoshlarni ajratish, lug'atdan to'g'ri foydalanishni o'rganish, so'zlar tuzilgan qoliplarni yodda saqlash va ularni qo'llashga oid ko'nikma hosil qilish.

1. Ilgarigi darslarda o'tilgan, sizga tanish bo'lgan so'zlarni alifbo tartibida o'zak harflariga e'tibor bergan holda lug'at daftaringizga yozing.

2. Quyidagi so'zlarning bir guruhga birlashtiruvchi o'zak xarflarini aniqlang va lug'at kitobidan topib oling.

- a) إِعْلَامٌ، تَعْلِيمٌ، مُعَلِّمٌ، مَعْلُومٌ، عَالِمٌ، عَالِمٌ، عَالِمٌ، عَالِمٌ
- b) اسْتِعْمَالٌ، مَعْمَلٌ، مُعَامَلَةٌ، عَامِلٌ، عَمَلٌ
- v) رَحْمَانٌ، مَرْحُومٌ، مَرْحَمَةٌ، رَحْمَةٌ، رَحِيمٌ
- g) مُسْتَحْكَمٌ، حُكُومَةٌ، حَكِيمٌ، حِكْمَةٌ، مَحْكُومٌ، حَاكِمٌ، حُكْمٌ
- d) اسْتِكْمَالٌ، تَكْمِيلٌ، مَكْمَلٌ، كَمَالَةٌ، كَامِلٌ، كَمَالٌ
- ye) مَحْمُودٌ، أَحْمَدٌ، حَمِيدٌ، حَمْدٌ

3. Quyidagi so'zlar tarkibidan o'zak bo'la oladigan va o'zak bo'la olmaydigan harflarni aniqlang, so'ngra bu so'zlarni lug'at kitobidan topib oling.

بادن، بروز، بیان، جلیل، جمیل، شدید، مصباح، سلام، صداقة، مأمول، مسألة، رئیس، عجیب، مقعد، نافذة، غرفة، مشهور.

Quyidagi testlarni ishlang

1. Ushbu so'zning o'zagini toping: معلوم

- A. ع، ل، م
- B. م، ل، م
- C. م، ل، و
- D. م، ع، ل

2. ushbu so'zning o'zagini aniqlang: تطویر

- A. ط، و، ر
- B. ت، ط، ر
- C. ط، ی، ر
- D. ط، و، ر

3. Arab tilida o'zak qanday tovushlardan iborat bo'ladi?

- a) unli tovushlardan;
- b) undosh tovushlardan;
- v) unli va undosh tovushlardan;
- g) muayyan qoida yo'q.

4. Qaysi qatorida o'zak tarkibiga kirmasligi mumkin bo'lgan harflar ro'yxati to'liq berilgan?

- a) ل، ي، و، م، ت، ن، س، ه
 b) ز، ذ، د، ش، أ، ب، ق، و، م، ت، س
 v) ي، ه، ث، و، ل، م، ن، ك، س، ت
 g) و، ث، ي، ه، ت، ث، س، ش، ر، ز

“Kim tez so‘z tuza oladi” o‘yini

Talabalar maxsus qutidan biror harfni oladilar va shu zahoti mana shu harf ishtirok etadigan so‘zlarni og‘zaki aytib berishlari zarur. Bu usu ikki guruhga bo‘lingan talabalarga qo‘llansa samaraliroq chiqadi. Har bir talaba aytayotgan so‘zlarining sonini o‘qituvchi doskadagi o‘sha guruh nomi yozilgan joyga bir raqamarini ketma-ket yozish bilan belgiab boradi. Bu darsning oxirida o‘qituvchi biror talabani chiqarib doskadagi har bir guruh nomi ostidagi belgiangan raqamlarning sonini hisoblab umumiy natijani e‘lon qilishni taklif etadi. Qaysi guruh a‘zolari aytgan so‘zarning soni ko‘p bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib deb topiladi.

Nazorat savollari:

1. Arab tilidagi o‘zak va noo‘zak harflar haqida ma‘lumot bering.
2. Arab tilidagi o‘zakning o‘zbek tilidagi o‘zakdan qanday farqi bor?
3. So‘z vaznlari nima?

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo‘shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-russkiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O‘qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O‘qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

O'n sakkizinchi modul. Jins kategoriyasi.

Reja:

1. Arab tilida Jins kategoriyasi
2. Muzakkar jinsning xususiyatlari
3. Muannas jinsdagi so'zlarning berilishi

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Arab so'zlarining jinsga bo'linishi, muzakkar va muannas jins, ularning xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash.

Tayanch so'z va iboralar: Arab tilida jins kategoriyasi, muannas va muzakkar, "ta marbuta", alif maqsura.

Arab tilida so'zlar ikki xil: 1) muannas (qiz) va 2) muzakkar (er) jinsida bo'ladi.

So'zning muannas jinsda ekanligini bildiradigan yozilishidagi tashqi (morfologik) belgilari uchta:

1-So'zning «ta marbuta» (ة) bilan tugashi. Bunday so'zlar ko'p uchraydi:

O'qituvchi مُدْرَسَةٌ qiz اِبْنَةٌ jurnal مَجَلَّةٌ

2-So'zning اَ (alif va hamza) bilan tugashi. Bunday so'zlar kam uchraydi:

Davo دَوَاءٌ ko'k rang زَرْقَاءٌ saxro صَخْرَاءٌ

3-So'zning اِ (alif maqsura) bilan tugashi. Bunday so'zlar juda kam uchraydi:

Shifoxona مُسْتَشْفَى xushxabar بُشْرَى

qolgan muannas jinsdagi so'zlar ularning mazmuniga qarab aniqlanadi:

A) Ayol kishini yoki ularning ismini bildiruvchi so'zlar :

kelin عَرُوسٌ qiz- بِنْتٌ ona- أُمُّ Vidad (ism)- وِدَادٌ

B) Tananing juft a'zolarini bildiruvchi so'zlar:

ko'z عَيْنٌ quloq أُذُنٌ qo'l يَدٌ

V) Xalqlar, qabilalarning va ba'zi davlatlar, shaharlarning geografik nomlari:

quraysh (qabila) قُرَيْشٌ Livan أَلْبَانُ Liviya لِيْبِيَا

G) Yaratilishiga ko'ra yagona bo'lgan narsalarning nomlari:

quyosh شَمْسٌ shamol رِيْحٌ olov نَارٌ

Arab tilida muannas jins shaklida bo'lgan erkak kishi ismlari ko'p uchraydi:

Alloma عَلَامَةٌ Xalifa خَلِيفَةٌ Atiyya عَطِيَّةٌ
Mustafo مُصْطَفَى Muso مُوسَى Iso عِيسَى

qolgan so'zlar muzakkar jinsiga taalluqli so'zlardir.

Ba'zi so'zlar ikkita jinsda ishlatiladi. Bunday so'zlar lug'at kitoblarining oxirida ilova qilinadi. Masalan:

barmoq إِبْطٌ vino خَمْرٌ qo'ltiq إِبْطٌ

Муаннас		Мулоҳаза ва истиснолар	
I. Морфологик белгилари бўлган муаннас исмлар			
1	ة	مَدِينَةٌ عُرْفَةٌ وَرْدَةٌ	Баъзи ة билан тугайдиган эркакларнинг исmlари музаккар саналади. خَمْرَةٌ، عَلَامَةٌ.
2	اء -	صَحْرَاءُ \ زَهْرَاءُ \ حِرْبَاءُ	
3	ى -	دِكْرِي بَشْرِي كُبْرِي	Агар ى сўзнинг ўзак таркибидан бўлса, у ҳолда бу исmlар музаккар ҳисобланади. Масалан: بَنِي - مَبْنِي

II. Morfologik belgilari бўлмаган муаннас исмлар			
1	Аёл кишини ёки аёлларнинг исмларини билдирган	أُمُّ أخت ابنت زَيْنَبُ	
2	Тананинг жуфт аъзолари	يَدٌ عَيْنٌ أُذُنٌ	-
3	Миллат-элат номлари	العَرَبُ الأُوْرُبُكُ	оқил исм бўлгани сабабидан улар баъзан кўпликда ҳам қўлланилиши мумкин
4	Аниқлик артиклини олмайдиган ва танвин билан тугамайдиган географик номлар	مِصْرًا بَغْدَادُ أَطْرَائِلِسَ	
5	Яратилишига кўра ягона бўлган нарсаларнинг номлари	رَيْحٌ اسْمُومًا دَبُورًا حَرْبٌ أَنَارٌ أَحْمَهُمَّ	شَمْسٌ أَرْضٌ بَيْتًا سُوْقٌ نَفْسٌ أَدَارٌ

III. Юқоридаги белгилари бўлмаган исмлар музаккар исм саналади		I-1 даги ҳолат бундан мустасно
III. Бундан ташқари иккала жинсда ҳам бирдек қўлланадиган исмлар ҳам бор		
1	مَلْحٌ، قَمَرٌ، عَقْرَبٌ، نَسْرٌ، فَرَسٌ، كَيْدٌ، قَوْمٌ، سَمَاءٌ.	ёдлаб, эса саклаб қолинади
2	جَسُوْرٌ، عَجُوْرٌ، حَنُوْنٌ	فَعُوْلٌ вазнидаги сўзлар
3	جَرِيحٌ (جرح) جَمِيْلٌ (جمال)	ўтимли феъллардан вазнида ясалган сифатлар
		جَمِيْلٌ каби исмлар бундан мустасно, чунки у ўтимсиз جَمَلٌ феълидан ясалган

Nazorat savollari:

1. Jins kategoriyasi haqida gapiring.
2. So'z qanday harflar bilan tugasa muannas jinsida bo'ladi?
3. Muannas va muzakkar jinsiga o'ntadan misol ayting.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-russkiy slovar. –M., 1985.

4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O‘qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O‘qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

Reja:

1. Sodda gap va uning turlari.
2. Ismiy gap va unda ega-kesimning moslashuvi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Arab tilida sodda gap, turlari, ot kesimli sodda gap, tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash.

Tayanch so'z va iboralar: sodda gap, ismiy gap, ismiy gapdagi ega va kesim.

Sodda gap deb ega va kesimga ega bo'lib, ma'lum bir fikrni ifodalay oladigan va grammatik va ohang jihatdan shakllangan sintaktik birlikka aytiladi.

Sodda gaplar ikki xil: yig'iq yoki yoyiq bo'ladi.

Sodda yig'iq gap gapning bosh bo'laklari bo'lmish ega va kesimdan iborat bo'ladi.

Sodda yoyiq gapda bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi yoki hol) ishtirok etadi.

Ismiy gaplar

Kesimi ism bilan ifodalangan gapga *ismiy gap* va bunday kesimga *ismiy kesim* deyiladi. Ismiy kesim vazifasida ot, sifat, son yoki olmosh kabi ismlardan biri keladi.

Ismiy kesimning ega yoki eganing o'rnini haqida xabar berishiga qarab ismiy gap ikki xil bo'ladi.

Ega haqida xabar beradigan ismiy gap. Bunday gapning boshida odatda ega (المُبْتَدَأُ) aniq holatda va bosh kelishikda, (الخَبْرُ) (ega haqida xabar beruvchi) ismiy kesim esa odatda undan keyin noaniq holatda keladi. Agar ismiy kesim ot bilan ifodalangan bo'lsa u ega bilan faqat kelishik va sonda moslashadi. Gap bo'laklari kelish tartibi mana shunday:

Jumlaning tarjimasi	kesim-الخَبْرُ	ega-المُبْتَدَأُ
Va'da omonat(dir).	أَمَانَةٌ	الْوَعْدُ
qanoat xazina(dir).	كَنْزٌ	الْقَنَاعَةُ
Kitob do'stdir.	أَنْيْسٌ	الْكِتَابُ

Agar ismiy kesim jinsda o'zgaradigan sifat, son yoki olmosh kabi ism bilan ifodalangan bo'lsa u ega bilan jinsda ham moslashadi:

Gazeta eskidir.

الصَّحِيفَةُ قَدِيمَةٌ

Ikki tolib oqildirlar.

الطَّالِبَانِ عَاقِلَانِ.

Ular mudarrislardir.

هُم مُدَرِّسُونَ.

Bular mudarrisalardir.

هَؤُلَاءِ مُدَرِّسَاتٌ.

Arab tilidagi hozirgi zamonnin anglatadigan bunday ismiy jumalarda o'zbek tilida ishlatiladigan yordamchi «...dir» bog'lovchi-fe'li ishlatilmaydi.

Agar ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa, u holda aksincha, gapning egasi kesimning jinsi bilan moslashishga «majbur» bo'ladi:

СОДДА ЙИҒИҚ ГАП

الْكَلَامُ الْمُفِيدُ

А) исмий гап الْجُمْلَةُ الْإِسْمِيَّةُ

Жумланинг таржимаси	الْخَبَرُ - кесим	الْمُبْتَدَأُ - эга
<u>Ваъда омонат(дир).</u>	<u>أَمَانَةٌ</u>	<u>الْوَعْدُ</u>
<u>Каноат хазина(дир).</u>	<u>كَنْزٌ</u>	<u>الْمَنْعَاةُ</u>

Nazorat savollari:

1. Arab tilida sodda gap qanday yasaladi?
2. Sodda gapning qanday turlari bor?
3. Arab tilida ega va kesim qanday ataladi?

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo‘shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-russkiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O‘qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O‘qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

Ikkinchi modul. Amaliy mashalar bajarish.

Reja:

1. Sodda gaplar tuzish
2. Ismiy gaplarning vazifalarini aniqlash
3. Dialogni tarjima qilish

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Arab tilida sodda gap, turlari, ot kesimli sodda gap, tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash.

1. Quyida berilgan yuqoridagi so'zlardan ega va pastdagi so'zlardan kesim tanlab, ega va kesim moslashuvi qoidasiga binoan gap tuzing:
طقس، مطر، كلية، صديق، كاتب، نجار، مكتبة، مترجم، غزير، جميل، سالمان، بعيد، ظريف، قريب، نشيط، مريضان

2. Oltita sodda ismiy gap tuzing.
3. Quyidagi gaplarni arab tiliga tarjima qiling:

Bu – stol. Bu – stul. Ana u shkafdir. Bu xaritami? Ha bu xaritadir. Bu devormi? Yo'q, bu eshikdir. Bu nima? Bu – deraza. Ana u chiroqdir. Bu – gazeta, u esa – jurnal. Sen o'qituvchidersan. Men talabaman. U kim? U ishchidir. Sen dehqonsan. U o'qituvchimi? Ha, u o'qituvchi. U ishchimi yoki dehqon (mn.j)? Talabamisan? Yo'q, men ishchiman. U tirishqoqmi? Ha, u tirishqoq, U faolmi (mn.j)?

Quyidagi
qing.

dialogni tarjima

في المطار

هَذَا هُوَ مَطَارُ الْخُرطوم
هَذِهِ هِيَ تَلَايِةُ الْكُوَيْتِ
يُوسُفُ يَدْخُلُ صَالَةَ الْوُصُولِ
يُوسُفُ أَمَامَ مَكْتَبِ الْجَوَارَاتِ
مُرَافِقُ الْجَوَارَاتِ : بِمُنَاقَاةِ الْوُصُولِ مِنْ فَضْلِكَ!
يُوسُفُ : هَذِهِ هِيَ .
مُرَافِقُ الْجَوَارَاتِ : جَوَازُ السَّفَرِ مِنْ فَضْلِكَ!
يُوسُفُ : هَذَا هُوَ .
مُرَافِقُ الْجَوَارَاتِ : مَا سَبَبُ التَّرِيَاةِ ؟
يُوسُفُ : الدَّرَاسَةُ فِي مَعْهَدِ اللُّغَاةِ الْعَرَبِيَّةِ .
مُرَافِقُ الْجَوَارَاتِ : مَا الْعُنْوَانُ فِي الْخُرطوم؟
يُوسُفُ : مَعْهَدُ اللُّغَاةِ الْعَرَبِيَّةِ .
مُرَافِقُ الْجَوَارَاتِ : هَذَا هُوَ الْجَوَازُ .
يُوسُفُ : شُكْرًا .
مُرَافِقُ الْجَوَارَاتِ : مَعَ السَّلَامَةِ .

مَنْ أَنَا؟



أَنَا كَمَال . مَنْ أَنْتِ؟



أَنَا كَمَال . مَنْ أَنْتِ؟
أَنَا لَيْلَى .



أَنَا كَمَال . مَنْ هُوَ؟
هُوَ حَسَن .



أَنَا كَمَال . مَنْ هِيَ؟
هِيَ سَمِيرَة .

تَدْرِيكًا ، أَجِبْ عَنِ السُّئَالِ الَّتِي لَعَنَتِ السُّؤَالِيَّةَ .



مَا هَذَا؟ هَلْ هَذَا ضَاطِبٌ؟ مَا هَذَا؟



هَلْ هَذَا نَمْرٌ؟ مَا هَذَا؟ هَلْ هَذَا مِئِيلٌ؟



مَا هَذِهِ؟ هَلْ هَذِهِ سِنٌّ؟ مَا هَذِهِ؟

٣٢
أَيْنَ؟

أَيْنَ الْكِتَابُ؟
الْكِتَابُ فَوْقَ الْمَكْتَبِ .



أَيْنَ الْقِطْعَةُ؟
الْقِطْعَةُ تَحْتَ السَّرِيرِ .



أَيْنَ السَّيَّارَةُ؟
السَّيَّارَةُ أَمَامَ الْبَيْتِ .




أَيْنَ الشَّوْرُ؟
الشَّوْرُ خَلْفَ الشُّورِ .



أَيْنَ الْوَسَادَةُ؟
الْوَسَادَةُ عَلَى السَّرِيرِ .



أَيْنَ الْوَرْدُ؟
الْوَرْدُ فِي الْحَدِيقَةِ .



Nazorat savollari:

1. Yangi so'zlar ishtirokida sodda gaplar tuzing

2. Berilgan dialogni ifodali o'qing ya yodlang

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-ruskiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O'qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O'qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

Uchinchi modul. So'roq olmoshlari va so'roq gap.

Reja:

1. Arab tilida so'roq olmoshlari haqida ma'lumot
2. So'roq olmoshlarining turlari
3. So'roq gaplarning xususiyatlari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: So'roq gapning turlari va so'roq olmoshlari bilan tanishish, ularni gap tarkibida qo'llash ko'nikmasini hosil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: fonema, tovush, unli, lablangan, lablanmagan, til orqa, til oldi, diftong, undosh tovush, tovush paychalari, ovoz ishtiroki, portlovchi, sirg'aluvchi, talaffuz, yozuv, transkripsiya, alifbo.

So'zlovchining noma'lum narsa yoki hodisani bilish maqsadida savol bilan qilgan murojaatini ifodalovchi gaplarga so'roq gaplar (الْجُمْلَةُ الاسْتِفْهَامِيَّةُ) deyiladi. Odatda so'roq gaplar so'roq so'zi bilan boshlanadi:

Mashina qayerda?

أَيْنَ السَّيَّارَةِ؟

Kitob qiziqarlimi?

الْكِتَابُ مُمْتَعٌ؟ هَلْ

Og'zaki nutqda so'roq savol ohangi bilan ham ifodalanadi.

Yozdingmi? كَتَبْتَ؟

Kitob qiziqarlimi?

الْكِتَابُ مُمْتَعٌ؟

Uch xil so'roq gap bor: umumiy so'roq gap, maxsus so'roq gap va alternativ so'roq gaplar.

I. Umumiy so'roq gaplar. "mi?" yoki "mi?" "هل" yoki "أ...mi?" umumiy so'roq yuklamalari vositasida ifodalanadi (bir harfdan iborat bo'lgan yuklamalar so'zlarga qo'shilib yoziladi).

U mudarrismi? أَهُوَ مُدَرِّسٌ؟

هَلْ هُوَ مُدَرِّسٌ؟

Bu qalammi? أَهَذَا قَلَمٌ؟

هَلْ هَذَا قَلَمٌ؟

II. Maxsus so'roq gaplar. Bunday gaplar ushbu so'roq so'zlari bilan ifodalanadi:

Oqil (odam) haqida so'rash uchun: kim? - "مَنْ؟"

Maqolani kim yozdi?

مَنْ كَتَبَ الْمَقَالَ؟

Darsda kim yo'q?

مَنْ غَائِبٌ فِي الدَّرْسِ؟

g'ayri oqil (odamdan boshqa) haqida so'rash uchun: nima? - "مَا؟"

Mashinaning rangi qanday? (nima?)

مَا لَوْنُ السَّيَّارَةِ؟

Ruhshunoslik qanday fan?

مَا عِلْمُ النَّفْسِ؟

Zamon haqida so‘rash uchun:

Darsni qachon o‘qiding?
Yozgi ta‘til qachon?

qachon? - “متى؟”

متى قرأت الدرس؟
متى العطلة الصيفية؟

Makon haqida so‘rash uchun:

Sharqshunoslik instituti
qayerda?

qayerda? - “أين؟”

أين معهد الاستسراق؟

Salim, qaerga
(ketavapsan)?

إلى أين يا سليم؟

Uyingiz qaerda
joylashgan?

أين يقع بيتكم؟

Surayyo qaerdan (kelgan)?

من أين تريا؟

Holat haqida so‘rash uchun:

Qalaysan?

qanday? - “كيف؟”

كيف حالك؟

Ertaga ob-havo qanday?

كيف الطقس غدا؟

Bu so‘roq olmoshlarining oldiga turli old ko‘makchilar qo‘yilib, yangi ma‘nodagi so‘roq olmoshlari hosil qilinishini biz "أين؟" so‘roq olmoshi misolida ko‘rdik. Ushbu usul bilan boshqa so‘roq olmoshlaridan ham yangi so‘roq so‘zlari yasash mumkin:

nima uchun?	لِمَ؟	q	مَا	q	لِ
kimdan?	مِمَّنْ؟	q	مَنْ	q	مِنْ
nima haqida?	عَمَّ؟	q	مَا	q	عَنْ
kim bilan?	مَعَ مَنْ؟	q	مَنْ	q	مَعَ
nima uchun?	لِمَاذَا؟	q	مَاذَا	q	لِ
nimadan?	مِمَّا؟	q	مَا	q	مِنْ
kimniki?kimga?	لِمَنْ؟	q	مَنْ	q	لِ
kimda bor?					
qachongacha?	إِلَى مَتَى؟	q	مَتَى	q	إِلَى

أي (muannas jins uchun أيّة) -qaysi? so‘roq olmoshi bilan hamma narsa haqida so‘rash mumkin. U gapdagi vazifasiga qarab uch kelishikdan birida keladi. Undan keyin kelayotgan so‘z qaratqich kelishigida va birlik sonda bo‘lsa noaniq holatda keladi:

Qaysi dars qiyin? أَيُّ دَرْسٍ صَعْبٌ؟
Qaysi tilni bilasan? أَيُّ لُغَةٍ تَعْرِفُ؟

Ko‘plik yoki ikkilik sonda bo‘lsa aniq holatda keladi:

Qaysi yo‘l afzal?
(Ikki yo‘lning qaysinisi afzal?)
Qaysi talaba qoloq?
(Talabalarning qaysisi qoloq?)

أَيُّ الطَّرِيقَتَيْنِ أَفْضَلُ؟

أَيُّ الطُّلَّابِ رَاسِبٌ؟

III. Alternativ so‘roq gaplari. Bunday gaplar ikki yoki undan ortiq narsadan birini tanlash yoki aniqlash yoki taklif etish ma‘nosidagi so‘roq gaplardir. Bunday

gapning boshiga **أ** yoki **هَلْ** umumiy so'roq yuklamalaridan biri qo'yiladi, ikki narsaning orasiga esa «**أَمْ**-yoki» yuklamasi qo'yiladi. Masalan:

Sen shoirmi yoki yozuvchimi?

أَأَنْتَ شَاعِرٌ أَمْ كَاتِبٌ؟

Tayyorada qaytdingmi yoki

أَبِالطَّائِرَةِ رَجَعْتَ أَمْ

kemada(mi)?

بِالْبَاخِرَةِ؟

Nazorat savollari:

1. So'roq olmoshlar deb nimaga aytiladi?
2. So'roq olmoshlarning qanday turlari mavjud?
3. So'roq gaplarning qanday vazifalari bor?

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-russkiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O'qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O'qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

To'rtinchi modul. Amaliy mashalar bajarish.

Reja:

1. So'roq olmoshlari ishtirokida so'roq gaplar tuzish
2. Alternativ so'roq olmoshlarini o'rganish
3. Maxsus so'roq olmoshlarini mustahkamlash

O'quv mashg'ulotining maqsadi: So'roq gapning turlari va so'roq olmoshlari bilan tanishish, ularni gap tarkibida qo'llash ko'nikmasini hosil qilish.

أنتما عاقلتان؟ أم ممتلئتان هما أم مهندستان؟ أسمير نشيط أم محمود؟ أنبيل ذهب أم محمود؟ من هي؟ من أنت طالب؟ زيد مدرس؟ أهي مدرسة؟ هل هما فلاحتان؟ أما هو ذكي؟ ألا أنتم؟ ما هذا؟ ما هذه؟ هل العنب حلو؟ هل المشمش حامض؟ أما التفاح لذيذ؟ هل هذه الفاكهة حامضة؟ أ حلو الكثرى أم حامض؟ أين الرمان؟ أنت أكلت التوت؟ كم أكلت الجوز؟ متى أكل زيد لوزا؟ أي طالب ذكي؟ أية طالبة مجتهدة؟

Quyidagi gaplarni tarjima qiling:

Bu nima? Sen (muannas) kimsan? Ular (ikkisi, muannas) tikuv-chimi? Maryam toliba emasmi? Nabil saxiy emasmi? Ahmad va Mahmud olijjanobmi?

Gilos qani (qaerda)? Qovun shirinmi yo tarvuzmi? Bodring yedingmi, pomidormi? Garmdori achchiq emas-mi? Rashid ko'p shaftoli yemadimi? Qaysi kitob yangi? Qaysi jurnal arabcha? Salim qachon ketdi? Karima qani? Muhammad qaerda? Qachon yozding? Qancha yozding?

Quyidagi matnni o'qib tarjima qiling va yodlab oling:

— صباح الخير، يا باسم!
— صباح النور، يا محمود!
— عفواً، يا صديقي، أين أحمد؟
— أحمد انصرف. عدتم المؤاخذه، أما دق الجرس؟
نعم، ما دق. لا تُؤاخِذني، كم درسنا اليوم؟
- اليوم درسان فقط، يا باسم.
- أي درس الآن؟
- الآن درس اللغة العربية.
— أرجو معذرةً، يا محمود، أما أنت عربي؟
- بلى، أنا عربي. وأنت، يا باسم، عربي أيضاً؟
— لا، أنا فارسي. وزينب؟ من هي؟
— زينب وفاطمة تركيتان.
- اعذرني، متى يدق الجرس، يا أخي؟
الآن يدق. أنا أستاذن يا عزيزي. إلى اللقاء والسلام عليكم.
— وعليكم السلام ورحمة الله وبركاته وإلى اللقاء.

4. Yodlab oling:

هَلْ شَمْسٌ تَكُونُ بِلا شُعَاعٍ.
Nursiz quyosh bo'ladimi?

Nazorat savollari:

1. Maxsus so'roq olmoshlari ishtirokida 10 ta gap tuzing
2. Alternativ so'roq olmoshlari ishtirokida 15 ta gap tuzing
3. So'roq olmoshlarini yodlang

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-russkiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O'qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O'qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

Beshinchi modul. Amaliv mashqlar bajarish.

Reja:

1. So'roq olmoshlarini o'rganish
2. So'roq gaplarni mustahkamlash

O'quv mashg'ulotining maqsadi: So'roq gapning turlari va so'roq olmoshlari bilan tanishish, ularni gap tarkibida qo'llash ko'nikmasini hosil qilish.

1. Tezkor javoblarni yod oling.

..... اسمي	ما اسمك؟
هذا.....، هو كتاب	ما هذا؟
هذه جريدة، هي.....	ما هذه؟
أنا.....	من أنت؟
..... ذلك	من ذلك الشاب؟
..... هذا كرم	من هذا الشاب؟
..... تلك تلك الفتاة؟
..... هذه	من هذه الفتاة؟
..... أنا من.....	هل أنت عربية؟
..... لا. أنا من ب.....	هل أنت من مدريد؟



- ١ - ما اسمك؟
- ٢ - كيف حالك؟
- ٣ - من أين أنت؟
- ٤ - ما جنسيتك؟
- ٥ - هل أنت روسي؟
- ٦ - هل أنت من مصر؟
- ٧ - هل أنت طالب؟

- ١ - وَعَلَيْكُمْ ...
- ٢ - كَيْفَ ... يَا حَسَنُ.
- ٣ - كُلُّ شَيْءٍ عَلَى ...
- ٤ - أَنَا ... أَنَا مِنْ تُرْكِيَا.
- ٥ - ... وَسَهْلًا.
- ٦ - نَعَمْ، أَنَا مِصْرِيَّةٌ. وَمَنْ ... أَنْتِ؟

Quyidagi testlarni ishlang.

1. Qaysi qatorda faqat so'roq yuklamalari va olmoshlari berilgan?
 - a) أ، هل، من، ما، متى، أين
 - b) ما، هل، من، حيث، أين، أو
 - v) من، أ، ما، حين، أو، هل
 - g) أ، هل، متى، ليس، ما، من
2. «Qaysi toliba?» jumlasining tarjimasini qaysi badda bexato yozilgan?
 - a) أَيُّ طَالِبَةٍ
 - v) أَيَّةُ طَالِبَةٍ

- b) أَيْةٌ طَالِبَةٌ g) أَيْةٌ الطَالِبَةِ
3. «أَي» so‘roq olmoshi o‘zidan keyingi so‘z bilan jinsda moslashishi:
a) shart; v) mumkin emas;
b) shart emas; g) uchchala banddagi javob to‘g‘ri.

Nazorat savollari

1. So‘roq yuklama va olmoshlarini aytib bering.
2. Maxsus so‘roq gapga misollar keltiring va javoblarini ayting.
3. Alternativ so‘roq gap qanday yasaladi?

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo‘shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-russkiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O‘qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O‘qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

Oltinchi modul. Ikkilik son.

Reja:

1. Arab tilida ikkilik son haqida ma'lumot
2. Ikkilik sonning yasalish xususiyatlari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Arab tilida son, ikkilik son, uning tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'lishni ta'minlash.

Tayanch so'z va iboralar: ikkilik son, -ani qo'shimchasi.

Ikkilik son muzakkar yoki muannas jins, birlik sonda bo'lgan ismning oxiridagi tanvinini olib tashlab, o'rninga نَ (a:ni) qo'shimchasini qo'shib yasaladi. Bunda muannas jinsdagi so'zning ة («ta marbuta») si ت («ta mamduda»)ga almashtiriladi. Masalan:

ikkita toliba	طَالِبَاتٍ	←	toliba	طَالِبَةٌ
ikkita mudarris	مُدَّرِّسَاتٍ	←	mudarris	مُدَّرِّسٌ

Ikkilik sondagi so'z oldiga ال artikli qo'yilganda ham نَ qo'shimchasi o'zgaradi:

طَالِبَاتٍ	←	طَالِبَاتٍ	←	الطَالِبَاتِ
------------	---	------------	---	--------------

Alif maqsura -ى bilan tugagan ismning ikkiligi hosil qilinganda u ي ga o'zgaradi:

ikkita xushxabar	بُشْرَيَاتٍ	←	xushxabar	بُشْرَى
------------------	-------------	---	-----------	---------

Hamza (ء) yoki alif (ا) bilan tugagan so'zlardan ikkilik son hosil qilinganda, ularning hamza yoki aliflari «wa:wun» (و) ga aylanib ketadi:

ikkita go'zal	حَسَنَاتٍ	←	go'zal	حَسَنَاءُ
---------------	-----------	---	--------	-----------

Ikkilik sondagi so'zlar bosh va qaratqich-tushum kelishiklarida turlanadi:

kelishik	noaniq holatda		aniq holatda		kelishik qo'shimcha
	muza kkar	muan nas	muza kkar	muan nas	
bosh	طَالِبَاتٍ	طَالِبَاتٍ	الطَالِبَاتِ	الطَالِبَاتِ	انَ (-a:ni)
qaratqich-tushum	طَالِبَاتٍ	طَالِبَاتٍ	الطَالِبَاتِ	الطَالِبَاتِ نَ	ينَ (-ayni)

Nazorat savollari:

1. Arab tilida ikkilik son qanday yasaladi? Misollar bilan keltiring.
2. Ikkilik sonlar ishtirkida 10 ta gap tuzing.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-russkiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O'qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O'qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

Reja:

1. Ikkilik sonlarni jinlarda ishlatilishi
2. Gap tuzishda ikkilik sondan foydalanish

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Arab tilida son, ikkilik son, uning tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'lishni ta'minlash.

1. Quyidagi so'zlardan ikkilik son hosil qiling:

معلمة، معلم، عالم، غرفة، لوح

2. Quyidagi jummalarni o'qing, yozing, transkripsiyalang va o'zbek tiliga o'giring:

البيت بعيد. الجامعة قريبة. الدرس سهل. المسألة صعبة. الكتاب قديم. المحفظة جديدة. الكرسي صغيرة.
الطاولة كبيرة. الغرفة نظيفة. النافذة وسخة. هل الباب مفتوح؟ لا. الباب مقفل. هل النافذة مفتوحة؟ نعم. النافذة
مفتوحة. الحائط أبيض. الورقة بيضاء. هل اللوح أسود أم أبيض؟ اللوح أسود. الطاولة سوداء. البابان
مفتوحان. النافذتان مقلتان. هل هما مفتوحتان؟ لا.
الطالب مجتهد. الطالبة مجتهدة. كريم شاب. زينب شابة. هو جالس. هي جالسة. هل هو حسن؟ نعم، هو حسن. هي
حسنة أيضاً. أنت قوي. أنت جميلة. كريم و محمود طالبان. زينب و فاطمة طالبتان. الطالبتان مجتهدتان. الشبان
ظريفان. هما جالسان. الشبان ظريفتان. هما جالستان.

So'zlar كلمات

بعيد	<i>ba'ūdun</i>	uzoq
نظيف	<i>naz.ūfun</i>	toza
قريب	<i>qarūbun</i>	yaqin
وسخ	<i>o'asixun</i>	kir, iflos
سهل	<i>sahlun</i>	oson
مفتوح	<i>maftix.un</i>	ochiq
صعب	<i>s.a'bun</i>	qiyin
مقفل	<i>muqfalun</i>	berk, yopiq
قديم	<i>qadūmun</i>	eski, qadim
قوي	<i>qao'iyyun</i>	kuchli
أسود	<i>'aso'adu</i>	qora
ضعيف	<i>d.a'ūfun</i>	kuchsiz
أبيض	<i>'abyad.u</i>	oq
حسن	<i>x.asanun</i>	yaxshi,

		chiroyli
جميل	<i>jamūlun</i>	chiroyli
ظريف	<i>z.arūfun</i>	aqli
هما	<i>humā</i>	u ikkalovi
جالس	<i>jālisun</i>	o'tirguvchi
هو جالس	<i>huo'a jālisun</i>	U o'tiribdi.

Nazorat savollari:

1. Ikkilik sonlar ishtirokida gaplar tuzing
2. Ham muzakkar, ham muannas jinsdagi ikkilik sonlarga misollar keltiring

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-russkiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O'qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O'qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

Reja:

1. Ko'plik son haqida ma'lumot
2. Ko'plik sonning turlari. To'g'ri ko'plik
3. To'g'ri ko'plik shakllari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Arab tilida ko'plik son, turlari, to'g'ri ko'plik, uning yasalishi haqida tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash.

Tayanch so'z va iboralar: ko'plik son, to'g'ri ko'plik, ko'plik hosil qiluvchi qo'shimchalar.

So'zning oxiriga ma'lum qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil bo'ladigan ko'plik to'g'ri ko'plik deyiladi. To'g'ri ko'plik quyidagicha hosil bo'ladi¹³:

1. Birlik muzakkar jins otlar oxiridagi tanvinni olib tashlab, **وْنٌ** - 'yña qo'shimchasini qo'shish bilan. Masalan:

معلم *mu'allimun* o'qituvchi, - **معلمون** *mu'allimūna* o'qituvchilar **فلاح** *fallāx.un* dehqon, - **فلاحون** *fallāx.una* dehqonlar.

Bu qo'shimcha yordamida ba'zan erkak kishini bildirmaydigan so'zlardan ham ko'plik hosil qilish mumkin. Masalan:

سنة - سنون yillar

1. Birlik muannas jins so'zlardan – *atun* qo'shimchasini olib tashlab, - *ātun* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi¹⁴. Masalan:

معلمة *mu'allimatun* o'qituvchi, (ayol)

معلمات *mu'allimātun* o'qituvchilar(ayollar).

فلاحة *fallāx.atun* dehqon(ayol)

فلاحات *fallāx.ātun* dehqon(ayollar)

2. Bundan tashqari jonsiz predmetni ifodalab kelgan birlik muannas va muzakkar so'zlardan ham muannas jins to'g'ri ko'plik hosil qilish mumkin.

Masalan:

لغة *lug'atun* til – **لغات** *lug'ātun* tillar

محصول *max.s.ylun* hosil – **محصولات** – *max.s.ylātun* hosillar

5. Agar muannas jins otlar **اء** – yoki **ى** – tugagan bo'lsa, hamza **و** o'ga, – **ى** esa ay ga aylanadi. Masalan:

صحراء *s.ax.rā'u* cho'l – **صحراوات** *s.ax.rāo'ātun* cho'llar

ذكرى *zīkrā* esdalik – **ذكريات** *zīkrāyātun* esdaliklar To'g'ri ko'plikdagi ismlar ikkita kelishikda turlanadi:

jins	kelishik	noaniq holat	aniq holat	kelishik qo'shimchasi
mi zal	bosh	مُدْرَسُونَ	الْمُدْرَسُونَ	وْنٌ:na

¹³ Arabic Verbs&Essentials of Grammar. Second edition. Jane Wightwich, Mahmoud Gafaar. USA. P.117.

¹⁴ Arabic Verbs&Essentials of Grammar. Second edition. Jane Wightwich, Mahmoud Gafaar. USA. P.117.

	qaratqich tushum	مُدْرَسِيْنَ	المُدْرَسِيْنَ	يْنَ i:na
muannas	bosh	مُدْرَسَات	المُدْرَسَات	َاتْ a:tun a:tu
	qaratqich tushum	مُدْرَسَاتِ	المُدْرَسَاتِ	َاتِ a:tin a:ti

Ba'zi ismlarning muzakkar jinsidagi ko'pligi - siniq ko'plikda, muannas jinsdagisi esa- to'g'ri ko'plikda hosil bo'ladi. Buni aniqlash uchun bizga lug'at kitoblari va o'zimiz yod olgan so'z boyligimiz qo'l keladi¹⁵.

Nazorat savollari

1. Ko'plik son arab tilida qanday ma'nolari bor?
2. To'g'ri ko'plik shakli qanday yasaladi?
3. To'g'ri ko'plik shakllari gapda qanday ma'nolarni anglatadi?

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –T., 1998, 2003.
2. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 3 Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Baranov X. Arabsko-russkiy slovar. –M., 1985.
4. Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O'qituvchi, 2007.
5. Abdujabborov A. Arab tili. –T., 2007.
6. Talabov E. Arab tili. –T.: O'qituvchi, 1993.
7. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. –T.: Nihol, 2010.

To'qqizinchi modul: Amaliy mashqlar bajarish

Reja:

1. Ko'plik songa oid misollar keltirish
2. To'g'ri ko'plik shakllarini yasash

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Arab tilida ko'plik son, turlari, to'g'ri ko'plik, uning yasalishi haqida tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash.

¹⁵ Arabic Verbs&Essentials of Grammar. Second edition. Jane Wightwich, Mahmoud Gafaar. USA. P.118.

Ushbu soʻzlarning koʻpligini aniq va noaniq holatda hosil qiling va ularni kelishiklarda turlang. Ularning jinsini, tarjimasini (lugʻatdan) aniqlang:

سُورِيّ، سُورِيَّة، تَائِب، تَائِبَةٌ، مُؤرِّخ، عَالِمَةٌ، مَشْهُورَةٌ، صَائِمٌ.

Quyidagi soʻzlardan toʻgʻri koʻplik hosil qiling:

مدرس، مدرسة، فنان، فنانة، كلمة، درجة، امتحان.

Quyidagi jummalarni oʻqing, yozing, transkripsiyalang va oʻzbek tiliga oʻgiring.

هم معلمون. أنتم مهندسون. نحن مصورون. المعلمون حاضرون. الموظفون أيضاً حاضرون. المهندسون غائبون. المصورون مشغولون. المؤرخون مشهورون. الملاحون ماهرون. هل هم نجارون؟ لا. هم خياطون. هن معلمات. أنتن فلاحات. المعلمات غائبات. الفلاحات حاضرات. العاملات عاقلات. هل أنتن خياطات؟ نعم. نحن خياطات. هؤلاء مترجمون. أما أولئك فهم مدرسون. نحن شبان. أنتن شبابات. هؤلاء هم الطلاب. هذه هي الكلية. أولئك هم الممثلون.

